



ARTICLE INFO

Received: 25th November 2022
Accepted: 05th December 2022
Online: 07th December 2022

KEY WORDS

Klaster, meva-sabzavotchilik, oziq-ovqat mahsulotlari, salohiyat, qo'shilgan qiymat, investitsiyalar, qiymatni hisoblash, qayta ishlash, saqlash.

MEVA-SABZAVOTLARNI SAQLASH, QAYTA ISHLASH JARAYONIDA YO'QOTISHLARNI OLDINI OLIH ASOSIDA QO'SHILGAN QIYMATNI KO'PAYTIRISH YO'LLARI.

Yuldasheva Hafizaxon Abdurahim qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti kafedrasasi assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7409310>

ABSTRACT

Bugungi kunda sabzavot yetishtirish va meva yetishtirish kabi qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlari mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rinlarga ega, chunki ular aholini qimmatbaho oziq-ovqat mahsulotlari bilan, qayta ishlash sanoatini esa xomashyo bilanta'minlaydi. Respublikamizda ishlab chiqarishni kengaytirish, meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va eksport qilishga qartilgan chora tadbirlar jadal suratlar bilan amalga oshirilmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotida, shu jumladan, qishloq xo'jaligi sohasining meva-sabzavotchilikni rivojlantirishi bo'yicha o'tkazilayotgan oziq-ovqat dasturi amalga oshirishida albatta, o'ziga hos islohotlar muhim o'rin egallaydi.

Ma'lumki, mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda meva va sabzavotchilik sohasini o'zni kattadir. Shu asosda qishloq xo'jaligida meva va sabzavot yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida 2019 yil 11 dekabrda O'zbekiston respublikasi Prezidentining "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4549-son qarori¹ qabul qilindi. Ushbu qarorda keltirilgan vazifalar bugungi kunda qishloq xo'jaligida

meva va sabzavot yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish asosida ularda boshqaruvning eng zamonaviy usullarini qo'llash, yetishtirilayotgan mahsulotlar hajmini ko'paytirish va sifatini xalqaro talablarga moslashtirish bilan bog'liq masalalarni qamrab olgan. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda aholi jon boshiga kuniga kamida 330-400 g yoki yiliga 115-120 kg meva, shundan 25 kg uzum va 12 kg rezavor-meva yetishtirilishi kerak. O'zbekiston o'lka tibbiyot instituti respublika aholisining uzum iste'mol qilish normasini 38,4 kg ga oshirishni va bunga qo'shimcha yana 10-11 kg quritilgan mevalar iste'mol qilishni tavsiya qiladi. Oxirgi yillarda yurtimiz oziq-ovqat xavfsizligining asosiy tayanchi hisoblangan

¹ 2019 yil 11 dekabrda O'zbekiston respublikasi Prezidentining "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4549-son qarori



qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, qishloq xo'jaligidagi ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish, ishlab chiqarishga yangi va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, mahsulot navlari va chorva mollari zotini, urug'chilik-selektsiya ishlarini tubdan yaxshilash borasida keng qamrovli, Shu bilan birga, puxta o'ylangan ishlar amalga oshirilmoqda.

"2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 30-maqsadida qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish, 141-vazifada agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobar oshirish, jumladan, 2022 yilga mo'ljallangan dastur ishlab chiqish, sanoatbop meva-sabzavot hajmi 3,4 mln tonnaga, qayta ishlash quvvatlarini 3,1 mln tonnaga va qayta ishlash darajasini 16 foizga yetkazish, meva-sabzavotni qayta ishlash quvvatlarini 3,1 mln tonnaga (107 foiz), sutni – 2,9 mln tonnaga (111,5 foiz), go'shtni – 410 ming tonnaga (119 foiz) yetkazish, oziq-ovqat mahsulotlari assortimentini (qayta ishlangan go'sht-sut, meva-sabzavot, yog'-moy va boshqalar) 898 tadan 1100 taga yetkazish, 3,2 mingta yangi ish o'rinlari yaratish vaziflari belgilangan.²Yuqorilardan kelib chiqib qishloq xo'jaligi korxonlarida meva-

sabzavotlarni yetishtirish, qayta ishlash jarayonidagi nobudgarchikini kamaytirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu holatlarni e'tiborga olgan holda bugungi kunda qishloq xo'jaligi korxonalarida meva-sabzavotlarni qayta ishlash jarayonida qo'shilgan qiymatni ko'paytirish dolzarb ilmiy tadqiqot muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi hamda ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi korxonalarida meva-sabzavot yetishtirishdagi asosiy omillardan samarali foydalanish asosida meva-sabzavotchilik iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollari, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlab, tayyor mahsulotsifatidatayyorlaganda olinadigan iqtisodiy samaradorlik, qo'shilgan qiymatni ko'paytirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va rentabellikni oshirish, mevachilik tarmog'ini rivojlantirish muammolari bo'yicha xorijiy olimlardan Djeym S. Jonson, Pol R. Merfi, mamlakatimiz agrar iqtisodchi olimlari A. Abdug'aniyev, A. Zokirov, O. Sobitov, B. T. Salimov, M. S. Yusopov ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar.

Bugungi kunda salkam 35 milliondan oshgan mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat va kundalik extiyoj mollari bilan muntazam ta'minlash masalasi iqtisodiy isloxotlar jarayonidagi eng dolzarb masalalardan sanaladi. Shuning uchun xam bugungi kunda raqobatlariga dosh bera oladigan iqtisodiyotni shakllantirish islohotlarning bosh maqsadi hisoblanadi. aIshlab chiqarish jarayonlari va realizatsiya paytida mahsulot sifatini yaxshilash hamda kamayishiga yo'l qo'ymaslik, qayta ishlash korxonalarini joylashtirishni takomillashtirish, ularni xom ashyo

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida PF- 60-son [Farmoni](#)



bazasiga yaqinlashtirish, yangi sovutgichlar texnikasini qo'llash va rivojlantirish, mahsulotlarni tashish va saqlash uchun soha tarmoqlarini refrijerator transporti hamda konteynerlar bilan to'liq ta'minlash zarur. Respublika xo'jaliklarida keng ko'lamda sabzavotlarni tuzlash punktlari, kompot va sharbat tayyorlaydigan korxonalar, meva-uzumlarni quritish maydonchalarini tashkil etish lozim. Meva-sabzavotlarni sifatli saqlash va qayta ishlash ko'p jihatdan hosilot, iqtisodchi va zoomuxandislarga bog'liq. Ular va boshqa qishloq xo'jalik xodimlariga mahsulotlarni saqlashda quyidagi talablar qo'yiladi:


1. mahsulotlarni va urug'lik fondini imkoniyati boricha yo'qotmasdan hamda sifatini tushurmasdan saqlash;
2. mahsulotlarni saqlayotgan paytda tegishli texnologik usullar va rejimlar qo'llab ularning sifatini yanada oshirish;
3. oz mehnat va sarf harajat qilib, mahsulotlarni saqlashda rentabellikni oshirgan holda. Oxirgi masala juda zarur bo'lib, ba'zi mahsulotlarni saqlashda (kartoshka, karam va boshqalar) harajatlar mahsulotni ishlab chiqarishdagi qiymatidan ham ortib ketadi. Inson qishloq xo'jalik mahsulotlarini iste'mol eta boshlagandan buyon uni saqlash va qayta ishlash bilan shug'ullanib keladi. yetishtirilgan mahsulotni nes- no'bud qilmasdan va sifatini pasaytirmasdan saqlash va undan unumli foydalanish qadimdan inson ehtiyojlaridan biri bo'lgan. O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashga alohida e'tibor berib kelishgan. Mintaqamizda ob-havo yil va bir kecha-kunduzda o'zgaruvchan bo'lganligi sababli go'sht, yog', sut, baliq, tuxum kabi mahsulotlar issiqda tez ayniydi, juda qattiq sovuqda esa sabzavot va mevalar muzlab

qoladi. O'zbekistonda qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashning eng qadimgi usullaridan ko'mib yoki ilib saqlash, qoqi olishda quritish kabilar keng qo'llanilgan. Mevalar va sabzavotlarni saqlash — xo'l va sersuv mahsulotlarni iste'mol etish yoki qayta ishlashga qadar saqlanishiga yordam beradigan tadbirlar majmui. Yetishtirilgan mahsulotni nobud qilmasdan va sifatini pasaytirmasdan saklash va undan foydalanish qadimdan inson ehtiyojlaridan biri bo'lgan. Saqlashni to'g'ri tashkil etish mahsulot sifatining uzoq, vaqt buzilmasligini va nobudgarchilikning oldini olishni ta'minlaydi Meva va sabzavotlarni saqlashdagi asosiy qiyinchilik bu mahsulotlar tarkibida erkin holatdagi suvning ko'pligi bilan bog'liq. Meva va sabzavotlarni ishlov berish 3xil b'oladi. Ular:

DASTLABKI ISHLOV BERISH.
Dastlabki ishlov berish natijasida yuvilgan va qadoqlangan mahsulot yoki keyingi texnologik qayta ishlash bosqichlariga tayyor mahsulot olinadi.

Izboskan tumanida bog'dorchilik mahsulotlarini saqlash tizimi ob'ektlarining mulkiy tegishlilik maqomi tasnifi³

³ **Manba:** Izboskan tumanida bog'dorchilik mahsulotlarini saqlash tizimi ob'ektlarining mulkiy tegishlilik maqomi tasnifi



IKKILAMCHI ISHLOV BERISH. Ikkilamchi ishlov berish mahsulotlarni tozalash, [kesish va qadoqlashni](#), va alohida mahsulotlarni, ularning salatlar yoki meva-sabzavot aralashmalarini qadoqlashni o'z ichiga olgan

CHUQUR QAYTA ISHLASH. Chuqur qayta ishlashga qaynatish, muzlatish, quritish, konservalash va undan keyingi qadoqlash misol b'oladi. Qayta ishlash

vazifasi yoki konserva, sabzavotlar va mevalar - bu ularning saqlanishi, lekin yangi emas, lekin qayta ishlangan, meva - sabzavot mahsulotlarining kimyoviy tarkibi va ta'mi o'zgarib, yangi iste'mol xususiyatlariga ega bo'ladi.

Bog'dorchilik mahsulot saqlash inshootlari bog'dorchilik mahsulotlarni yetishtiruvchi fermer, dehqon xo'jaliklari yoki qayta ishlovchi sanoat korxonalari



tasarrufida bo'lishi ham va shuningdek, mustaqil (xususiy) yoki agrosanoat firmasi ixtiyorida bo'lishi ham mumkin. Bog'dorchilik xo'jaliklari o'rtasidagi xomashyo sifati va sanoat korxonalar uchun raqobat, qayta ishlovchi korxonalar o'rtasida baho mexanizmi asosida sifatli xomashyo manbalaridan foydalanishni ko'zda tutuvchi bog'dorchilik xo'jaliklarining manfaatlarini hisobga oladigan tartiblar joriy etish bugungi kunda

muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Qo'shilgan qiymat zanjirining rivojlanishi qishloq xo'jaligi raqobatdoshligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Mahsulotlarni daladan yakuniy iste'molchigacha yetkazib berish, ya'ni yig'ish, tashish, saqlash, qayta ishlash, qadoqlash va sertifikatlash harajatlarining yuqoriligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan olinadigan foydani kamaytiradi.

References:

1. 2019 yil 11 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4549-son qarori
2. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli Farmoni. 2022 yil 28 yanvar.
3. P.Ismatullayev. "Sifat menejmenti tizimi va uni sertifikatlashtirish". Darslik. Toshkent.2014
4. Murodova M.CH. Agroklasterni tashkil etishda janubiy koreya tajribasidan foydalanishning yo'nalishlari// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2019-yil
5. Andijon viloyati, Izboskan tumani, "IZBOSKAN AGROEXPO" agroklasteri tarkibidagi "Elyorbek", "Sanjarbek", "Ismoilov Rahimjon orzusi" xususiy bog'dorchilik fermer xo'jaliklarining 2018-2020 yillardagi statistik va moliyaviy hisobotlari.
6. «IZBOSKAN AGROEXPO» MCHJ agroklasteri statistika ma'lumotlari. 2019-2021 yillar
7. B.Nosirov, Sh.Abdullaev, H.Yuldasheva. Relevance of development of multiple-profile farms. International journal for innovative Engineering and Management Research (IJIEMR). 2021. Volume 10, Issue 03, Pages: 516-521. ISSN 2456-5083. <https://ijiemr.org/public/uploads/paper/638741617019191.pdf>